



Madaniyat sohasida kasbiy malakalarni
rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi

KASBIY STANDART

KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATI



“Kutubxona-axborot faoliyati” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Madaniyat sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Kutubxona-axborot faoliyati

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0012



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Kutubxona-axborot faoliyati kasbiy standarti bo'yicha Kutubxona va arxiv materiallari qayta tiklovchisi, Elektron kutubxonalar kutubxonachisi, Kutubxona fondini tiklovchisi, Kutubxonachi (o'rta malakali), Bibliograf, Kutubxona texnologiyalari bo'yicha mutaxassis (bibliotexnolog) kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

axborot-kutubxona resursi – moddiy obyektida matn, ovozli yozuv yoki tasvir tarzida qayd etilgan hamda identifikatsiyalash, saqlash va foydalanishni ta'minlash uchun rekvizitlarga ega bo'lgan axborot;

axborot-kutubxona faoliyati – axborot-kutubxona muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona fondlarini shakllantirish va axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha faoliyati;

axborot-kutubxona fondi – tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslarining majmui;

axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish – foydalanuvchilarning axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishini ta'minlash;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

elektron katalog – tizimlashtirilgan axborot-kutubxona resurslari ro'yxatining elektron shakli;

elektron kutubxona – axborot-kutubxona fondining elektron shakli;

foydalanuvchi – axborot-kutubxona xizmati ko'rsatilishi uchun axborot-kutubxona muassasasida ro'yxatga olingan shaxs;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq

tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

yig'ma elektron katalog – axborot-kutubxona muassasalarining elektron kataloglari majmui.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 13-apreldagi "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida" gi 280-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida" gi PQ-4354-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 275-son-Qarori (IFUT-2).

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Kutubxona-axborot faoliyati	
2.	Faoliyatning asosiy maqsadi:	Jamiyatning ilmiy, madaniy, ta'limiy va axborot ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslarini to'plash, tartibga solish, saqlash va foydalanuvchilarga tezkor hamda ishonchli shaklda yetkazib berish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	S seksiyasi San'at, sport va dam olish 91 Kutubxonalar, arxivlar, muzeylar va boshqa madaniyat obyektlari 91.1 Kutubxona va arxiv faoliyati 91.11 Kutubxona faoliyati 91.11.0 Kutubxona faoliyati	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Kutubxona-axborot muassasalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini, mehnat funksiyalarini, bilim va ko'nikmalar bo'yicha minimal talablarni belgilash, ularning malaka darajasini baholash uchun yagona me'yoriy asos yaratishdir	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	Malaka darajasi:
		73230013 Kutubxona va arxiv materiallari qayta tiklovchisi	3
		26221002 Elektron kutubxonalar kutubxonachisi	5
		26221004 Kutubxona fondini tiklovchisi	5
		34331005 Kutubxonachi (o'rta malakali)	5
		26221001 Bibliograf	6
		26221005 Kutubxona texnologiyalari bo'yicha mutaxassis (bibliotexnolog)	6

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi:	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	73230013 Kutubxona va arxiv materiallari qayta tiklovchisi	A1.3	Kutubxona va arxiv hujjatlarini diagnostika qilish	A1.01.3	Hujjatlarning jismoniy holatini aniqlash
				A1.02.3	Zararlanish sabablarini aniqlash
				A1.03.3	Restavratsiya rejasini ishlab chiqish
		A2.3	Hujjatlarni tozalash va dezinfeksiyalash	A2.01.3	Quruq tozalash ishlarini bajarish
				A2.02.3	Nam tozalash va kimyoviy ishlov berish
				A2.03.3	Dezinfeksiya jarayonlarini o'tkazish
		A3.3	Hujjatlarni restavratsiya qilish (tiklash)	A3.01.3	Qog'oz tiklash bo'yicha ishlarni bajarish
				A3.02.3	Muqova va bog'lov elementlarini tiklash
				A3.03.3	Rasm, foto, grafik materiallarni restavratsiya qilish
		A4.3	Hujjatlarning barqarorligini ta'minlash va saqlash	A4.01.3	Saqlash sharoitlarini optimallashtirish
				A4.02.3	Restavratsiya qilingan hujjatlarni jamlash
				A4.03.3	Uzoq muddatli saqlash bo'yicha tahlil va monitoring
		A5.3	Texnologik hujjatlar va hisob-kitoblarni yuritish	A5.01.3	Restavratsiya jarayonlari bo'yicha texnik hujjatlarni yuritish
				A5.02.3	Materiallar va resurslar hisobini yuritish
				A5.03.3	Sifat nazorati va ichki auditda ishtirok etish
2	26221002 Elektron kutubxonalar kutubxonachisi	B1.5	Elektron resurslar bilan ishlash	B1.01.5	Elektron hujjatlarni qabul qilish va tizimlashtirish
				B1.02.5	Elektron katalogga ma'lumot kiritish
				B1.03.5	Raqamli fondlarni strukturaviy tashkil etish
		B2.5	Foydalanuvchilarga elektron axborot xizmatlari ko'rsatish	B2.01.5	Elektron kutubxonadan foydalanishga ko'maklashish
				B2.02.5	Elektron ma'lumotlar bazalari bilan ishlash
				B2.03.5	Raqamli xizmatlar sifatini ta'minlash
		B3.5	Elektron kutubxona tizimini boshqarish	B3.01.5	Elektron kutubxona platformasini administratsiya qilish
				B3.02.5	Elektron resurslar xavfsizligini ta'minlash
				B3.03.5	Raqamli fondlarni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish

		B4.5	Elektron kutubxona loyihalari va innovatsion xizmatlarni boshqarish	B4.01.5	Raqamlashtirish loyihalarini rejalashtirish va tashkil etish
				B4.02.5	Elektron kutubxona xizmatlarini innovatsion bosqichga ko'tarish
				B4.03.5	Elektron kutubxona faoliyati bo'yicha tahlil va hisobotlar tayyorlash
3	26221004 Kutubxona fondini tiklovchisi	D1.5	Kutubxona fondlarini restavratsiya qilishning murakkab jarayonlarini amalga oshirish	D1.01.5	Noyob, qimmatli va shikastlangan materiallarni chuqur ekspertiza qilish
				D1.02.5	Murakkab restavratsiya texnologiyalarini qo'llash
				D1.03.5	Restavratsiya jarayonlarini hujjatlashtirish va sifatni kafolatlash
		D2.5	Kutubxona fondlarini tiklash bo'yicha strategik ishlarni rejalashtirish va boshqarish	D2.01.5	Restavratsiya bo'yicha strategik reja va ustuvor yo'nalishlarni belgilash
				D2.02.5	Restavratsiya jarayonlarini tashkil etish
				D2.03.5	Restavratsiya faoliyati bo'yicha tahlil va hisobotlar tayyorlash
4	34331005 Kutubxonachi (o'rta malakali)	E1.5	Kutubxona fondi bilan ishlash va hujjatlarni texnik qayta ishlashni amalga oshirish	E1.01.5	Kutubxona fondini shakllantirish va hisobga olish
				E1.02.5	Hujjatlarni kataloglashtirish va bibliografik tavsiflash
				E1.03.5	Kutubxona fondini saqlashni tashkil etish
		E2.5	Foydalanuvchilarga axborot-kutubxona xizmatlarini ko'rsatish	E2.01.5	Foydalanuvchilarga maslahat va bibliografik xizmat ko'rsatish
				E2.02.5	Axborot resurslari bo'yicha qidiruv va ma'lumotlarni taqdim etish
				E2.03.5	Kutubxonada madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish
5	26221001 Bibliograf	F1.6	Bibliografik tavsiflash va axborot-resurslar bilan ishlash	F1.01.6	Hujjatlarni bibliografik tavsiflash
				F1.02.6	Axborot resurslarini qidirish va saralash
				G1.03.6	Referativ ishlovni amalga oshirish
		F2.6	Foydalanuvchilarga bibliografik xizmat ko'rsatish	F2.01.6	Axborot so'rovlarini bajarish
				F2.02.6	Tematik bibliografik ko'rsatkichlar tuzish
				F2.03.6	Axborot-kutubxona xizmatlarini targ'ib qilish
		F3.6	Tahliliy-bibliografik faoliyatni amalga oshirish	F3.01.6	Ilmiy bibliografik tahlil qilish
				F3.02.6	Kompleks bibliografik mahsulotlar yaratish
				F3.03.6	Axborot oqimlarini chuqur tahlil qilish
		F4.6	Bibliografik loyihalarni	F4.01.6	Bibliografik xizmatlar bo'yicha strategik rejalash ishlarini amalga

			rejalashtirish va boshqarish		oshirish
				F4.02.6	Bibliografik jarayonlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish
				F4.03.6	Hisobot, monitoring va tahliliy natijalarni taqdim etish
6	26221005 Kutubxona texnologiyalari bo'yicha mutaxassis (bibliotexnolog)	G1.6	Kutubxona jarayonlarida texnologik amaliyotlarni bajarish	G1.01.6	Kutubxona axborot tizimlarida boshlang'ich texnik ishlarni bajarish
				G1.02.6	Ma'lumotlarni elektron qayd qilish va tartibga solish
				G1.03.6	Foydalanuvchilarga texnik yordam ko'rsatish
		G2.6	Kutubxona texnologik jarayonlarini qo'llab-quvvatlash	G2.01.6	Raqamlashtirish jarayoniga ko'maklashish
				G2.02.6	Axborot tizimlarining kundalik texnik xizmatini ko'rsatish
				G2.03.6	Kutubxona jarayonlariga oid statistik ma'lumotlarni yig'ish
		G3.6	Kutubxona texnologik jarayonlarini loyihalash va optimallashtirish	G3.01.6	Kutubxona texnologiyalarining tahlili va takomillashtirish
				G3.02.6	Axborot tizimlarini o'rta darajada konfiguratsiya qilish
				G3.03.6	Masofaviy va raqamli xizmatlarni tashkil etish
		G4.6	Kutubxona xizmatlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish	G4.01.6	Innovatsion raqamli xizmatlarni ishlab chiqish
				G4.02.6	Kutubxona axborot tizimlari xavfsizligini ta'minlash
				G4.03.6	Tahliliy-texnik hisobotlar tayyorlash
		G5.6	Kutubxona texnologiyalari bo'yicha strategik boshqaruvni bajarish	G5.01.6	Kutubxona texnologiyalarini strategik rivojlantirish
				G5.02.6	Yirik texnologik loyihalarni boshqarish
				G5.03.6	Axborot tizimlari integratsiyasi va standartlashtirish
		G6.6	Kutubxona texnologiyalari bo'yicha ilmiy-innovatsion faoliyat yuritish	G6.01.6	Ilmiy tadqiqot va metodik ishlanmalarni yaratish
				G6.02.6	Innovatsion yechimlar va pilot texnologiyalarni sinovdan o'tkazish
				G6.03.6	Malaka oshirish va o'quv jarayonini metodik boshqarish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Kutubxona va arxiv materiallari qayta tiklovchi
Mashg'ulot nomining kodi:	73230
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<ul style="list-style-type: none"> - Mehnat kodeksi talablariga asosan mehnat huquqiga ega bo'lishi, 18 yoshga to'lgan bo'lishi; erkak (ayol); - Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; -Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; -Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; -O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; -Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; -Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; -Umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarini hurmat qilish; -Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; -Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; -Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; -Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; -Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; -Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Umumiy o'rta ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3-6 razryadli Kutubxona va arxiv materiallari qayta tiklovchi

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	Elektron kutubxonalar kutubxonachisi
	5	Kutubxona fondini tiklovchisi
	5	Kutubxonachi (o'rta malakali)
	6	Kutubxona texnologiyalari bo'yicha mutaxassis (bibliotexnolog)
	6	Bibliograf
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3- Kutubxona va arxiv hujjatlarini diagnostika qilish	A1.01.3- Hujjatlarning jismoniy holatini aniqlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Hujjatning tashqi ko'rinishi, bog'lanishi, tikilishi va betlar mustahkamligini vizual ko'zdan kechirish
		2. Qog'ozning rangi, zichligi, mo'rtlashganlik darajasi va deformatsiya turlarini aniqlab qayd etish
		3. Siyoh, bosma matn, rasmlar va muqovaning saqlanish holatini tekshirish va hujjatlash
		Ko'nikma:
		Jismoniy shikastlanish belgilari (yirtilish, dog'lanish, chirish, mog'or)ni aniqlash
		Maxsus diagnostika vositalari (lupa, UV/IR chiroq, namlik o'lchagich)dan to'g'ri foydalanish
		Hujjatning holatini standart mezonlar asosida baholash va qaydnomani to'ldirish
		Bilim:
	Qog'oz, siyoh, elim va muqova materiallarining fizik-kimyoviy xususiyatlari	
	Hujjatlarni tashqi ko'rikdan o'tkazish metodikasi va baholash mezonlari	
	Kutubxona va arxiv materiallarini saqlash bo'yicha normativ talablar	
	A1.02.3- Zararlanish sabablarini aniqlash	Mehnat harakatlari:
		1. Hujjatdagi shikastlanish turlarini tahlil qilib, ularning kelib chiqish manbasini aniqlash
		2. Saqlash sharoitlari (namlik, harorat, yoritish)ni o'lchab, hujjat buzilishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash
		3. Hujjatda zarar keltirgan mog'or, zararli hasharotlar yoki oksidlanish izlarini tekshirish
		Ko'nikma:
		Zararlanishning vizual va instrumental diagnostika usullaridan foydalanish
		Biologik va kimyoviy zarar belgilarini farqlash
Saqlash muhitidagi nosozliklar hujjatga qanday ta'sir qilishini tahlil qilish		

		Bilim:	
		Zarar turlari: biologik (mog'or, qo'ng'iz), kimyoviy (kislotali parchalanish), fizik (yirtilish, deformatsiya)	
		Arxiv va kutubxona materiallari uchun optimal saqlash sharoitlari	
		Qog'oz va boshqa materiallarda zararlanish jarayonining mexanizmi	
	A1.03.3- Restavratsiya rejasini ishlab chiqish		Mehnat harakatlari:
			1. Hujjatning jismoniy va kimyoviy holati bo'yicha tahliliy xulosalar chiqarish va restavratsiya jarayonlarini tanlash
			2. Restavratsiya uchun zarur material va vositalar (elim, filtr qog'oz, tikish materiallari, eritmalar) ro'yxatini shakllantirish
			2. Restavratsiya bosqichlarini izchil rejalashtirish va ularni hujjatlashtirish.
			Ko'nikma:
			Hujjat holatiga qarab eng maqbul restavratsiya metodini tanlash
			Restavratsiya jarayonini vaqt, material va texnik talablar asosida rejalashtirish
			Standartlarga mos restavratsiya kartasini (plan-protokol) to'g'ri tuzish
			Bilim:
			Qayta tiklash (yelimlash, mustahkamlash, suvsizlantirish, dezinfeksiya, tikish) usullarining turlari
Restavratsiya materiallari va ularning xususiyatlari			
Xalqaro (minimal aralashuv, qaytaruvchanlik, hujjat yaxlitligini saqlash) restavratsiya tamoyillari			
Mas'uliyat va mustaqillik:		1. Hujjatlarning jismoniy holatini dastlabki ko'rikdan o'tkazish bo'yicha berilgan ko'rsatmalarni mustaqil bajarish, jarayon davomida aniqlangan nuqsonlar haqida aniq ma'lumotlarni taqdim etish uchun shaxsiy javobgarlik	
		2. Diagnostika jarayonida oddiy xarakterdagi muammolarni (changlanish, yengil yirtilish, dog'lar, deformatsiya) mustaqil aniqlash	
A2.3- Hujjatlarni tozalash va dezinfeksiyalash	A2.01.3- Quruq tozalash ishlarini bajarish	Mehnat harakatlari:	
		1. Hujjatlarni maxsus yumshoq cho'tka yoki rezina gubka yordamida chang va changlanishlardan ehtiyotkorlik bilan tozalash	
		2. Mo'rtlashgan varaqlarni siljimasdan, past bosimda changyutgichning filtrlovchi moslamasi orqali tozalash	
		3. Yopishgan yoki qotib qolgan zarralarni mexanik shikast yetkazmasdan muloyim tarzda ajratish	
		Ko'nikma:	
Nozik qog'oz yuzalarini deformatsiya qilmasdan tozalash texnikalarini qo'llash			

		<p>Quruq tozalashda xavfsiz bosim va masofani saqlash</p> <p>Maxsus quruq tozalash uskunalarini (mikrocho'tka, HEPA-filtrli changyutgich) to'g'ri ishlatish</p> <p>Bilim:</p> <p>Qog'oz turlari va ularning mexanik ta'sirga sezgirlik darajalari</p> <p>Changlanishning hujjatga ko'rsatadigan xavfi va ta'sir mexanizmi</p> <p>Quruq tozalashda qo'llaniladigan vositalar va ularning xususiyatlari</p>
	A2.02.3- Nam tozalash va kimyoviy ishlov berish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Hujjat yuzasidagi dog' va mikro ifloslanishlarni maxsus namlangan tampon yoki filtrlangan suv bilan ehtiyotkorlik bilan artish</p> <p>2. Zarur hollarda pH muvozanatini tiklash maqsadida tamponlash yoki yengil kimyoviy ishqoriy eritmalar bilan ishlov berish</p> <p>3. Nam ishlovdan so'ng hujjatni maxsus quritish panelida tekis holatda joylashtirish</p> <p>Ko'nikma:</p> <p>Suv miqdorini nazorat qilgan holda qog'ozni namlash va artish texnikalarini qo'llash</p> <p>Kimyoviy eritmalaridan xavfsiz foydalanish va reaksiyalarga e'tibor berish</p> <p>Namlangan hujjatlarni deformatsiyaga yo'l qo'ymagan holda quritishni tashkil etish</p> <p>Bilim:</p> <p>Qog'ozning namlikka nisbatan fizik-kimyoviy xatti-harakati</p> <p>Tozalashda ishlatiladigan kimyoviy eritmalar (masalan, yengil ishqoriy, neytralizatorlar) va ularning tavsifi</p> <p>Nam ishlov berishning xavflari va cheklovlari</p>
	A2.03.3- Dezinfeksiya jarayonlarini o'tkazish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Zararli mikroorganizmlar yoki mog'or belgilari aniqlangan materiallarni ajratib, dezinfeksiya zonasiga joylashtirish</p> <p>2. Hujjatlarni xavfsiz darajada ultrabinafsha, issiqlik yoki gazli ishlov yordamida dezinfeksiya qilish</p> <p>3. Dezinfeksiyadan so'ng hujjatlarni ventilyatsiya zonasida havodan chiqarib, qayta paketlash</p> <p>Ko'nikma:</p> <p>Mog'or va bakteriyalarni aniqlash va ularga mos dezinfeksiya usulini tanlash</p> <p>Dezinfeksiya uskunalarini xavfsizlik protokollariga amal qilgan holda ishlatish</p> <p>Dezinfeksiyadan keyingi monitoringni amalga oshirish</p> <p>Bilim:</p> <p>Arxiv materiallariga zarar yetkazuvchi mikroorganizmlar</p>

		turlari
		Dezinfeksiya usullari va ularning ta'sir mexanizmlari
		Biologik xavfsizlik talablari va shaxsiy himoya vositalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Quruq va nam tozalash, yuzaki dezinfeksiyalash bo'yicha berilgan topshiriqlarni texnologik ko'rsatmalar asosida mustaqil ravishda bajarish va bajarilgan ishlarning sifatiga shaxsiy javobgarlik
		2. Tozalash va dezinfeksiyadan o'tgan hujjatning yakuniy holatini tekshirish, natijaning talabga mosligi bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish
A3.3- Hujjatlarni restavratsiya qilish (tiklash)	A3.01.3- Qog'oz tiklash bo'yicha ishlarni bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Yirtilgan yoki bo'shashgan varaqlarni maxsus tiklovchi qog'oz bilan yamoqlash yoki biriktirish
		2. Yo'qolgan qismlarni restavrator qog'ozi yoki handmade qog'oz yordamida to'ldirish
		3. Tiklangan qismni presslash orqali tekis holga keltirish
		Ko'nikma:
		Tiklovchi qog'oz tanlash va uni mos keladigan yo'nalishda joylashtirish
		Yelimlash materiallari bilan chiziqli, aniqlikni talab qiladigan ishlarda to'g'ri texnikani qo'llash
		Presslash jarayonida bosimni to'g'ri taqsimlash
		Bilim:
	Turli tiklovchi materiallarning fizik xususiyatlari	
	Yelimlarning turlari va ularning qog'oz bilan reaksiyasi	
	Qog'oz tiklashning an'anaviy va zamonaviy usullari	
	A3.02.3- Muqova va bog'lov elementlarini tiklash	Mehnat harakatlari:
		1. Kitob muqovasining shikastlangan qismlarini demontaj qilish va qayta shakllantirish
		2. Bog'lov iplarini almashtirish yoki qayta tikib chiqish
		3. Yangi muqova materialini kesib, shakl bo'yicha moslashtirib biriktirish
		Ko'nikma:
		Kitob blokini ajratish va qayta yig'ish texnikalaridan foydalanish
		Bog'lov mexanizmlarini (ip, tasmalar, yelimlar) to'g'ri qo'llash
Muqova tayyorlashda o'lchov va simmetriyani saqlash		
Bilim:		
Kitob bog'lash texnologiyalari va klassik bog'lov tizimlari		
Muqova materiallarining mustahkamlik va elastiklik xususiyatlari		
Kitob blokining konstruksion tuzilishi		
		Mehnat harakatlari:
		1. Rasm yoki fotomaterial yuzasidagi yoriqlar, dog'lar va deformatsiyalarni aniqlab, to'g'ri tiklash usulini tanlash

	A3.03.3- Rasm, foto, grafik materiallarni restavratsiya qilish	2. Rang o'chgan yoki shikastlangan qismlarda minimal aralashuv tamoyiliga asoslanib tiklash ishlari bajarish
		3. Grafik materialni tekislashtirish va himoya qatlamini qayta tiklash
		Ko'nikma:
		Nozik qatlamli tasvirlarga keraksiz bosim bermasdan ishlov berish
		Tasvir rang palitrasini moslashtirish va retush usullarini qo'llash
		Foto va grafik materiallar bilan ishlashda yorug'likdan himoyalash qoidalarini qo'llash
		Bilim:
		Tasvir texnologiyalarining (foto, grafik) materiali va kimyoviy tarkibi
		Rang tiklash va retush texnikalarining asosiy tamoyillari
		Grafik va fotomateriallar uchun saqlash talablari
Mas'uliyat va mustaqillik:		1. Restavratsiya bo'yicha berilgan topshiriqlarni me'yoriy talablar va texnologik ko'rsatmalar asosida mustaqil bajarish, ish jarayonining aniqligi va xavfsizligi uchun shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish
		2. Tiklash jarayonida yuzaga kelgan oddiy texnik muammolarni mustaqil hal qilish, murakkab vaziyatlarda esa o'z vaqtida mutaxassisni xabardor qilish
		3 Bajarilgan restavratsiya ishlarining natijasini tekshirish, hujjatni topshirishdan oldin sifat bo'yicha yakuniy bahoni mustaqil berish
A4.3- Hujjatlarning barqarorligini ta'minlash va saqlash	A4.01.3- Saqlash sharoitlarini optimallashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Saqlash xonalaridagi namlik, harorat, yorug'lik va havo aylanishi ko'rsatkichlarini o'lchab, tavsiya etilgan me'yorlarga moslashtirish
		2. Arxiv javonlari, qutilar va himoya materiallarini holatini baholab, zarur bo'lsa almashtirish yoki takomillashtirish choralarini ko'rish
		3. Muammoli saqlash zonalarida xavf darajasini aniqlab, profilaktik chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish
		Ko'nikma:
		Mikroiqlim monitoringi uskunalaridan (termogigrometr, datalogger) samarali foydalanish
		Saqlash bo'yicha xalqaro me'yor va standartlar asosida baholash
		Xavf omillarini aniqlash va ularni kamaytirish strategiyasini ishlab chiqish
		Bilim:
Arxiv va kutubxona fondlarining optimal mikroiqlim talablari		

		Saqlash sharoitlarining hujjatlarga fizik-kimyoviy ta'sir mexanizmlari
		Saqlash tizimlari va himoya vositalarining texnik tavsiflari
	A4.02.3- Restavratsiya qilingan hujjatlarni jamlash	Mehnat harakatlari:
		1. Restavratsiya qilingan materiallarni turi, hajmi va holati bo'yicha saralab, tegishli fondga joylashtirish
		2. Har bir hujjatga identifikatsiya belgilarini qo'yib, ro'yxatga olish jarayonini yakunlash
		3. Jamlangan materiallarni maxsus qutilar, papkalar yordamida xavfsiz joylashtirish
		Ko'nikma:
		Hujjatlarning texnik holatidan kelib chiqib mos saqlash paketini tanlash
		Identifikatsiya belgilari (inv. raqam, kod, shtrix) bilan to'g'ri ishlash
		Jamlangan hujjatlarni fond katalogiga kiritish va tizimlashtirish
		Bilim:
		Arxiv fondlari tasnifi va jamlash talablari
	Identifikatsiya va kataloglashtirishning texnik va metodik asoslari	
	Saqlash uchun qo'llaniladigan arxiv materiallarining (qutilar, papkalar) xususiyatlari	
	A4.03.3- Uzoq muddatli saqlash bo'yicha tahlil va monitoring	Mehnat harakatlari:
		1. Fondlar bo'yicha uzoq muddatli saqlashga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlab, monitoring natijalarini qayd etish
		2. Saqlash barqarorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish
		3. Xavfli o'zgarishlar aniqlangan hollarda darhol profilaktik restavratsiya bo'yicha choralar ko'rish
		Ko'nikma:
		Monitoring ma'lumotlarini tahlil qilish va tendensiyalarni aniqlash
		Saqlash xavfini baholash modellari bilan ishlash
		Uzoq muddatli saqlash strategiyalarini ishlab chiqish va asoslash
		Bilim:
		Uzoq muddatli saqlash nazariyasi va xalqaro standartlar (ISO, IFLA va boshqalar)
	Degradatsiya jarayonlari va ularning oldini olish usullari	
	Monitoringning texnik va analitik usullari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Hujjatlarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash uchun zarur mikroiklim, yorug'lik, havo aylanishi va gigiyenik sharoitlarning me'yorlarga mos bo'lishiga mustaqil ravishda javob berish

		<p>2. Saqlash sharoitlarida aniqlangan har qanday xavf omillarini (namlik, zararkunanda, changlanish, material degradatsiyasi) baholash va ularni bartaraf etish bo'yicha mustaqil choralar ko'rish</p> <p>3. Barqaror saqlashni ta'minlashga qaratilgan profilaktik ishlar rejasini mustaqil tuzish, amalga oshirish va natijasi uchun shaxsiy javobgarlik</p> <p>4. Fondlar saqlanishi bo'yicha aniqlangan muammolar haqida rahbariyatga asoslangan axborot taqdim etish va takliflarni mustaqil ishlab chiqish</p> <p>5. Zarur holatlarda restavratsiya yoki ko'chirish bo'yicha qarorlarni mustaqil qabul qilish, ularni bajarish jarayonida xavfsizlik, sifat va me'yoriy talablar uchun to'liq javobgarlik</p>
<p>A5.3- Texnologik hujjatlar va hisob- kitoblarni yuritish</p>	<p>A5.01.3- Restavratsiya jarayonlari bo'yicha texnik hujjatlarni yuritish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Har bir restavratsiya ishining bosqichlarini batafsil qayd qilib, texnik protokollarni tuzish</p> <p>2. Hujjatga qo'llanilgan materiallar, usullar va natijalarni elektron bazaga kiritish</p> <p>3. Restavratsiya jarayoni yakunida texnik hisobot tayyorlash</p> <p>Ko'nikma:</p> <p>Texnik hujjatlarni standartlashtirilgan shakllarda to'ldirish</p> <p>Elektron ma'lumotlar bazalarida ishlash va ma'lumotlarni strukturaviy joylashtirish</p> <p>Restavratsiya jarayonlari bo'yicha aniq, izchil va dalillarga asoslangan hisobot tuzish</p> <p>Bilim:</p> <p>Restavratsiya hujjatlarini yuritish bo'yicha normativ talablar</p> <p>Texnik yozuvlar va protokollash tizimlari</p> <p>Elektron arxivlash texnologiyalari</p>
	<p>A5.02.3- Materiallar va resurslar hisobini yuritish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Restavratsiya jarayonida ishlatiladigan materiallar (yelim, qog'oz, vositalar) sarfini qayd qilish</p> <p>2. Ombordagi mavjud resurslar holatini tekshirib, kerakli materiallar bo'yicha buyurtma shakllantirish</p> <p>3. Hisob-kitob hujjatlarini davriy ravishda yangilab, rahbariyatga taqdim qilish</p> <p>Ko'nikma:</p> <p>Resurslar sarfini rejalashtirish va ularni iqtisodiy jihatdan samarali boshqarish</p> <p>Ombor hisobini yuritish tizimlarida ishlash</p> <p>Xaridlar bo'yicha aniq hisob-kitoblar tayyorlash</p> <p>Bilim:</p> <p>Restavratsiya jarayonlarida qo'llaniladigan materiallarning texnik xususiyatlari</p>

		Ombor hisoboti va inventarizatsiya talablarining asoslari
		Xarid va resurslarni boshqarishning metodikasi
	A5.03.3- Sifat nazorati va ichki auditda ishtirok etish	Mehnat harakatlari:
		1. Restavratsiya jarayonlarining sifat standartlariga mosligini tekshirish
		2. Ichki audit paytida hujjatlar holati va protokollarning to'g'riligini baholash
		3. Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha takomillashtirish choralarini ishlab chiqish
		Ko'nikma:
		Sifat nazorati me'yorlari asosida baholash va xulosalar chiqarish
		Ichki audit jarayonlarida zarur dalillarni tahlil qilish
		Kamchiliklar bo'yicha takliflar ishlab chiqish va ularni asoslash
		Bilim:
		Sifat menejmenti tizimlari asoslari
		Ichki auditning metodik tamoyillari va tartibi
	Restavratsiya jarayonlarining sifat standartlari va mezonlari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Restavratsiya jarayonlari bo'yicha barcha texnologik hujjatlarni mustaqil ravishda to'ldirish, ularning to'g'ri, izchil va me'yoriy talablarga mos yuritilishini ta'minlash
		2. Ish jarayonida qo'llanilgan materiallar, usullar va sarflangan resurslar bo'yicha hisob-kitoblarni o'z vaqtida va aniq yuritish mas'uliyatini o'z zimmasiga olish
		3. Hisobotlarni rasmiy talablarga muvofiq shakllantirish hamda rahbariyatga mustaqil ravishda taqdim etish
		4. Hujjatlardagi xatoliklarni aniqlash, tuzatish, qayta ishlash bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish va zarur hollarda boshqa bo'limlar bilan hamkorlikni tashkil etish
		5. Ichki audit yoki tekshiruvlar jarayonida mazkur hujjatlar uchun to'liq javobgarlikni o'z bo'yniga olish va tekshiruvchilarga zarur axborotni mustaqil ravishda taqdim etish
	Texnik va/yoki texnologik talab:	Muhrlar, qo'lyozmalar, miniatyuralar bilan ishlash uchun asboblari; Nozik cho'tkalar (akvarel turidagi), pigment stabilizatorlari, mikroskoppel, pergament yumshatgich eritmalari, rang sinov palitrasi, mini-presslar Xavfsizlik va ishlash qulayligi uchun jihozlar; Paxta yoki nitril qo'lqop, himoya niqobi (chang va kimyoviy moddalardan), ventilyatsiya tizimi yoki extractor, himoya ko'zoynaklari, issiqlik va namlik barqarorligini saqlovchi shkaflar Saqlash va arxivlash uchun materiallar;

	Kislota-free (acid-free) qutilar, rxiv papkalari, polipropilen kapsulalar, silika-gel paketlari (namlikni boshqarish uchun), muhrlangan idishlar, maxsus arxiv javonlari
--	--

Kasbning nomi:	Elektron kutubxonalar kutubxonachisi
Mashg'ulot nomining kodi:	26221
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<ul style="list-style-type: none"> - Mehnat kodeksi talablariga asosan mehnat huquqiga ega bo'lishi, 18 yoshga to'lgan bo'lishi; erkak (ayol); - Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; -O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	O'rta maxsus professional ta'lim, boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	-

Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Kutubxona va arxiv materiallari qayta tiklovchisi
	5	Kutubxona fondini tiklovchisi
	5	Kutubxonachi (o'rta malakali)
	6	Kutubxona texnologiyalari bo'yicha mutaxassis (bibliotexnolog)
	6	Bibliograf
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.5- Elektron resurslar bilan ishlash	B1.01.5- Elektron hujjatlarni qabul qilish va tizimlashtirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Elektron hujjatlarni qabul qilish va dastlabki tekshiruvdan o'tkazish
		2. Hujjatlarni belgilangan kataloglash tizimiga joylashtirish
		3. Hujjat formatlari va sifatini nazorat qilish
		Ko'nikma:
		Elektron fayllarni qabul qilish va ularni standart tartibga keltirish
		Metama'lumotlarni to'ldirish va tekshirish
		Hujjatlarni saqlash va arxivlash tizimini boshqarish
		Bilim:
	Elektron hujjat formatlari (PDF, DOCX, TIFF, EPUB)	
	Metama'lumot standartlari (Dublin Core, MARC21)	
	Kutubxona fondlarini hisobga olish va saqlash me'yorlari	
	B1.02.5- Elektron katalogga ma'lumot kiritish	Mehnat harakatlari:
		1. Bibliografik yozuvlarni elektron katalogga kiritish
		2. Fayl va metama'lumotlarning to'g'ri va izchil bo'lishini tekshirish
		3. Katalogdagi ma'lumotlarni muntazam yangilash va tartibga solish
		Ko'nikma:
		Katalog tizimlarida ma'lumot kiritish
		Bibliografik yozuvlarni yaratish va tekshirish
Fayl va metama'lumotlarni tahrirlash va xatolarni tuzatish		
Bilim:		
Kataloglash me'yorlari va standartlari (AACR2, RDA)		

		Elektron katalog tizimlarining ishlash prinsiplari	
		Bibliografik yozuv elementlari	
	B1.03.5- Raqamli fondlarni strukturaviy tashkil etish		Mehnat harakatlari:
			1. Raqamli hujjatlarni mavzu va format bo'yicha ajratish
			2. Fondlarni iyerarxik tuzilishga kiritish va zaxira nusxa yaratish
			3. Fond tarkibini monitoring qilish va yangilash
			Ko'nikma:
			Raqamli fondlarni tematik va format bo'yicha tartiblash
			Fayllarni fond iyerarxiyasiga moslashtirish
			Zaxira nusxalarini yaratish va saqlash
			Bilim:
			Raqamli arxivlar va ularning tuzilishi bo'yicha asoslar
	Fondni saqlash va backup qilish qoidalari		
	Elektron fayllar xavfsizligi va hujjatlarning barqarorligini ta'minlash qoidalari		
	Mas'uliyat va mustaqillik:		1. Elektron hujjatlarni qabul qilish, saqlash, nomlash, kataloglashtirish va tizimlashtirish jarayonlarida belgilangan tartiblarga rioya qilgan holda mustaqil ishlash va resurslarning to'g'ri joylashtirilishi uchun shaxsiy mas'uliyat
2. Elektron katalog, raqamli fond va metama'lumotlar bilan ishlashda axborotning aniqligi, to'liqligi va sifatli kiritilishi uchun mas'uliyat bilan yondashish hamda ish jarayonida yuzaga kelgan xatolarni mustaqil tuzatish			
3. Elektron resurslar bilan ishlashda axborot xavfsizligi, mualliflik huquqi, foydalanish qoidalari va texnik talablar bajarilishini o'z faoliyati doirasida mustaqil nazorat qilish			
B2.5- Foydalanuvchilarga elektron axborot xizmatlari ko'rsatish	B2.01.5- Elektron kutubxonadan foydalanishga ko'maklashish	Mehnat harakatlari:	
		1. Foydalanuvchilarga kutubxona interfeysidan foydalanishda yordam berish	
		2. Qidiruv so'rovlarini amalga oshirish va foydalanuvchini mos resursga yo'naltirish	
		3. Oddiy texnik muammolarni aniqlash va yechimini tavsiya etish	
		Ko'nikma:	
		Foydalanuvchi bilan kommunikatsiya va yordam ko'rsatish	
		Kutubxona qidiruv tizimidan samarali foydalanish	
		Bilim:	
		Kutubxona interfeyslari va qidiruv texnologiyalari	
		Elektron kutubxona xizmatlari va funksiyalari	
		Foydalanuvchi so'rovlarini tahlil qilish metodlari	
		Mehnat harakatlari:	
	1. Ma'lumotlar bazalarida qidiruvni amalga oshirish		
	2. Natijalarni filtrlash va foydalanuvchiga taqdim etish		

	B2.02.5- Elektron ma'lumotlar bazalari bilan ishlash	3. Bazada aniqlangan xatoliklarni qayd etish va tuzatish
		Ko'nikma:
		Elektron ma'lumotlar bazalarida qidiruv o'tkazish
		Qidiruv natijalarini eksport qilish va saqlash
		Foydalanuvchiga mos natijalarni taqdim etish
		Bilim:
		Ma'lumotlar bazalarining ishlash prinsiplari
		Qidiruv operatorlari va filtrlar (Boolean, keyword)
	Ruxsatlar va foydalanuvchi kirish huquqlari	
	B2.03.5- Raqamli xizmatlar sifatini ta'minlash	Mehnat harakatlari:
		1. Xizmat ishlashini monitoring qilish
		2. Xatolik va nosozliklarni qayd etish
		3. Sifatni oshirish bo'yicha tavsiyalar berish
		Ko'nikma:
		Sifat monitoringini amalga oshirish
Nosozliklarni aniqlash va tuzatish		
Foydalanuvchi tajribasini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berish		
Mas'uliyat va mustaqillik:	Bilim:	
	Elektron kutubxona xizmatlarining sifat ko'rsatkichlari	
	Foydalanuvchi tajribasi (UX) asoslari	
B3.5- Elektron kutubxona tizimini boshqarish	B3.01.5- Elektron kutubxona platformasini administratsiya qilish	Monitoring va sifatni baholash metodlari
		1. Foydalanuvchilar bilan ishlashda axborot xavfsizligi, maxfiylik va foydalanish qoidalariga rioya qilinishini mustaqil nazorat qilish
		2. Foydalanuvchilarning elektron resurslardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan oddiy va o'rtacha murakkablikdagi muammolarni mustaqil hal qilish hamda xizmat ko'rsatish jarayonining uzluksizligini ta'minlash
		Mehnat harakatlari:
		1. Platformaning konfiguratsiyasini sozlash va foydalanuvchi ruxsatlarini boshqarish
		2. Texnik nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish
		3. Platforma ishlash samaradorligini monitoring qilish va optimallashtirish
		Ko'nikma:
		Elektron kutubxona platformalarini boshqarish va sozlash
		Foydalanuvchi hisoblari va ruxsatlarini boshqarish
		Platformaning ishlash samaradorligini baholash va yaxshilash
		Bilim:
Elektron kutubxona platformalarining arxitekturasi va funksiyalari		
Ma'lumotlar bazalari va server tizimlari ishlash prinsiplari		

		Platforma administratsiyasi va texnik diagnostika metodlari
B3.02.5- Elektron resurslar xavfsizligini ta'minlash		Mehnat harakatlari:
		1. Raqamli resurslar xavfsizligini nazorat qilish
		2. Fayllarni zaxiralash (backup) va tiklash jarayonlarini tashkil etish
		3. Xavfsizlik bo'yicha xatolik va tahdidlarni aniqlash va tavsiyalar ishlab chiqish
		Ko'nikma:
		Elektron resurslar xavfsizligini ta'minlash
		Zaxira nusxa yaratish va tiklashni tashkil etish
		Xavfsizlik tahlilini o'tkazish va himoya choralari ishlab chiqish
		Bilim:
		Ma'lumotlar xavfsizligi standartlari va protokollari
		Zaxiralash va ma'lumotlarni tiklash texnologiyalari
		Tahdidlar va elektron hujumlarni aniqlash usullari
B3.03.5- Raqamli fondlarni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish		Mehnat harakatlari:
		1. Raqamli fondni rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilish
		2. Strategik takliflar va yangilanish rejalarini ishlab chiqish
		3. Takliflarni rahbariyatga taqdim etish va amalga oshirishni rejalashtirish
		Ko'nikma:
		Raqamli fondni tahlil qilish va rivojlantirish yo'llarini aniqlash
		Strategik takliflar tayyorlash va loyihalashtirish
		Rahbariyatga taqdim etish va ijro jarayonini kuzatish
		Bilim:
		Raqamli kutubxona fondlarini rivojlantirish metodlari
Strategik rejalashtirish va loyiha boshqaruvi asoslari		
Innovatsion texnologiyalar va raqamli resurslarni kengaytirish imkoniyatlari		
Mas'uliyat va mustaqillik:		1. Elektron kutubxona tizimining uzluksiz ishlashi uchun to'liq mas'ullik, texnik nosozliklar va xizmatdagi uzilishlarni mustaqil aniqlash va bartaraf etish
		2. Tizim modullari, foydalanuvchi huquqlari, xavfsizlik sozlamalari va yangilanishlarni mustaqil boshqarish hamda ularning to'g'ri ishlashini nazorat qilish
		3. Tizimdan foydalanish bo'yicha ichki xodimlar, foydalanuvchilar yoki boshqa bo'limlarga uslubiy ko'rsatmalar berish, yuzaga kelgan murakkab masalalarda mas'uliyatli qarorlar qabul qilish

B4.5- Elektron kutubxona loyihalari va innovatsion xizmatlarni boshqarish	B4.01.5- Raqamlashtirish loyihalarini rejalashtirish va tashkil etish	Mehnat harakatlari:
		1. Raqamlashtirish loyihalari uchun ish rejasini ishlab chiqish va muddatlarni belgilash
		2. Loyihani amalga oshirish jarayonini tashkil etish va nazorat qilish
		3. Loyihada ishtirok etadigan xodimlar vazifalarini taqsimlash va bajarilishini kuzatish
		Ko'nikma:
		Loyihani rejalashtirish va vaqt jadvalini yaratish
		Resurslar va ishchi kuchini samarali taqsimlash
		Loyihaning ijrosini monitoring qilish va optimallashtirish
		Bilim:
		Raqamlashtirish loyihalari boshqaruvi asoslari
	Loyiha rejalashtirish va tashkil etish metodologiyalari	
	Resurslar boshqaruvi va ishchi jamoani tashkil etish tartiblari	
	B4.02.5- Elektron kutubxona xizmatlarini innovatsion bosqichga ko'tarish	Mehnat harakatlari:
		1. Yangi texnologiyalar va xizmatlarni joriy etish imkoniyatlarini aniqlash
		2. Innovatsion xizmatlarni loyihalashtirish va tajriba sinovlarini o'tkazish
		3. Foydalanuvchi tajribasini yaxshilash bo'yicha amaliy yechimlarni ishlab chiqish
		Ko'nikma:
		Innovatsion texnologiyalarni tadqiq qilish va tatbiq etish
		Elektron xizmatlarni loyihalashtirish va sinovdan o'tkazish
		Foydalanuvchi tajribasini tahlil qilish va yaxshilash
		Bilim:
Elektron kutubxona xizmatlarida innovatsion yechimlar		
Foydalanuvchi interfeysi (UX) va qidiruv tizimlari asoslari		
Texnologik yangiliklarni joriy etish metodlari		
B4.03.5- Elektron kutubxona faoliyati bo'yicha tahlil va hisobotlar tayyorlash	Mehnat harakatlari:	
	1. Kutubxona xizmatlari bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish	
	2. Hisobotlar tayyorlash va faoliyat samaradorligini baholash	
	3. Rahbariyatga tavsiyalar berish va hisobotlarni taqdim etish	
	Ko'nikma:	
	Statistik va monitoring ma'lumotlarini tahlil qilish	
	Hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish	
Faoliyat samaradorligini baholash va takliflar ishlab chiqish		

		Bilim:
		Elektron kutubxona faoliyatini baholash mezonlari
		Hisobot tayyorlash metodlari va statistika asoslari
		Faoliyatni optimallashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish usullari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Elektron kutubxona bo'yicha loyihalarni mustaqil rejalashtirish, muddatlar va resurslarni taqsimlash hamda ularning bajarilishini nazorat qilish
		2. Innovatsion raqamli xizmatlarni joriy etish jarayonida qarorlar qabul qilish, xizmatlar sifatini ta'minlash bo'yicha mas'uliyatni to'liq o'z zimmasiga olish
		3. Ichki va tashqi manfaatdor tomonlar (bo'limlar, IT mutaxassislar, tashkilotlar, foydalanuvchilar) bilan hamkorlikni mustaqil tashkil etish, yuzaga kelgan muammolarni tezkor hal qilish
Texnik va/yoki texnologik talab:		<p>Kompyuter va periferiya jihozlari</p> <p>Zamonaviy shaxsiy kompyuter yoki noutbuk</p> <p>Monitor (yuqori aniqlikdagi)</p> <p>Klaviatura va sichqoncha</p> <p>USB-xotira, tashqi HDD/SSD (zaxira nusxa olish uchun)</p> <p>Printer, skaner (oddiy va planshet turidagi)</p> <p>QR-kod skaneri (foydalanuvchilar uchun tezkor o'tish xizmatlari)</p> <p>Raqamlashtirish va multimedia texnikalari</p> <p>Planetar skaner (kitob va hujjatlarni sahifasiga zarar yetkazmasdan skanerlash uchun)</p> <p>A3/A2 formatdagi professional skanerlar</p> <p>Fotoapparat (DSLR yoki Mirrorless) – yuqori sifatli raqamlashtirish uchun;</p> <p>Tripod va yorug'lik jihozlari (fotografiya orqali ko'chirishda)</p> <p>Mikrofon va audio yozuv qurilmasi (audio-arxivlar uchun)</p> <p>Elektron kutubxona platformalari (DSpace, Koha, EPrints, Greenstone)</p> <p>Integratsiyalashgan kutubxona tizimlari (IKT)</p> <p>Ma'lumotlar bazasi boshqaruv tizimlari (MySQL, PostgreSQL, Oracle)</p>

Kasbning nomi:	Kutubxona fondini tiklovchi
Mashg'ulot nomining kodi:	26221
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<ul style="list-style-type: none"> - Mehnat kodeksi talablariga asosan mehnat huquqiga ega bo'lishi, 18 yoshga to'lgan bo'lishi; erkak (ayol); - Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatani sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	O'rta maxsus professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim +norasmiy (informal) ta'lim yoki maliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Kutubxona va arxiv materiallari qayta tiklovchisi
	5	Elektron kutubxonalar kutubxonachisi
	6	Kutubxona texnologiyalari bo'yicha mutaxassis (bibliotexnolog)
	6	Bibliograf
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.5- Kutubxona fondlarini restavratsiya qilishning murakkab jarayonlarini amalga oshirish	D1.01.5- Noyob, qimmatli va shikastlangan materiallarni chuqur ekspertiza qilish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Hujjatning jismoniy, kimyoviy va biologik shikastlanish darajasini batafsil tahlil qilish
		2. Materialning tarixiy, badiiy va ilmiy qiymatini baholash uchun ekspert mezonlarini qo'llash
		3. Restavratsiya uchun zarur bo'lgan texnologiya va resurslar bo'yicha dastlabki xulosani tayyorlash
		Ko'nikma:
		Diagnostik uskunalar yordamida material holatini aniqlash
		Tarixiy hujjatlar ekspertizasi bo'yicha professional baholash
		Shikastlanish turlariga mos restavratsiya metodini tanlash
		Bilim:
	Qadimiy va noyob hujjatlar konstruksiyasi va materiallari	
	Biologik, mexanik va kimyoviy shikastlanish mexanizmlari	
	Ekspertiza standartlari va restavratsiya etik tamoyillari	
	D1.02.5- Murakkab restavratsiya texnologiyalarini qo'llash	Mehnat harakatlari:
		1. Qalin shikastlangan, parchalanishga moyil yoki noyob tuzilishga ega materiallarga murakkab tiklash usullarini qo'llash
		2. Qog'oz, charm, pergament va foto materiallarga mos texnologik jarayonlarni amaliyotda bajarish
		3. Tiklash jarayonida zamonaviy laboratoriya uskunalaridan foydalanish
		Ko'nikma:
		Yuqori aniqlik talab qiladigan restavratsiya operatsiyalarini bajarish
Nozik va xavfli materiallar bilan ehtiyotkorlik bilan ishlash		
Turli materiallarga mos kimyoviy ishlov berish texnikalarini qo'llash		

		Bilim:
		Murakkab restavratsiya texnologiyalari va ularning qo'llanish sohasi
		Zarar yetkazmaydigan fizik-kimyoviy ishlov berish usullari
		Xavfsizlik talablari va laboratoriya sanitariya me'yorlari
	D1.03.5- Restavratsiya jarayonlarini hujjatlashtirish va sifatni kafolatlash	Mehnat harakatlari:
		1. Har bir restavratsiya bosqichi bo'yicha texnik hujjatlarni to'liq rasmiylashtirish
		2. Amalga oshirilgan jarayonlarni foto/video va texnik qaydlar bilan hujjatlashtirish
		3. Yakuniy natijani sifat standartlari asosida baholash va tasdiqlash
		Ko'nikma:
		Texnik hujjatlarni rasmiylashtirish va saqlash
		Sifat baholash mezonlarini qo'llash
		Raqamli hujjatlashtirish vositalaridan foydalanish
		Bilim:
		Restavratsiya hujjatlariga qo'yiladigan xalqaro talablar
	Sifat nazorati standartlari (ISO va arxiv-kutubxona talablari)	
Hujjatlashtirishning elektron va an'anaviy formatlari		
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Murakkab restavratsiya jarayonlarini mustaqil rejalashtirish	
	2. Restavratsiya jarayonida yuzaga keladigan texnik va tashkiliy muammolarni mustaqil hal qilish hamda sifat va xavfsizlikni kafolatlash	
	3. Restavratsiya ishlari davomida jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish va jarayonning uzluksizligini ta'minlash	
